

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI**



**SHARQ ALLOMALARINING ILMIY ME'ROSI
O'QUV DASTURI**

Bilim sohasi:	200 000 – San'at va gumanitar fanlar
Ta'lim sohasi:	220 000 – Gumanitar fanlar (tillardan tashqari)
Ta'lim yo'nalishi:	60220300 – Tarix

Chirchiq – 2024

Fan/modul kodi SH 1404		O'quv yili 2026-2027	Semestr 5	ECTS - Kreditlar 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta'lim tili O'zbek		Haftadagi dars soatlari 4	
1.	Fanning nomi		Auditoriya mashg'ulotlari (soat)	Mustaqil ta'lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Sharq allomalarining ilmiy me'rosi		60	90	150
2.	I. Fanning mazmuni				
Fanni o'qitishdan maqsad – Fanning maqsadi Sharq allomalarining ilmiy me'rosini fan sifatida yoritish, buyuk alloma va mutafakkirlar tomonidan yozib qoldirilgan boy noyob ilmiy asarlar, risolalami o'rganish, tahlil qilish va xulosa chiqarish, tariximizning ochilmagan qirralarini yuzaga chiqarish hamda umuminsoniy qadriyatlar asosida yondashadigan erkin fikrli komil insonni tarbiyalashdan iborat. Fanning vazifasi - Fanning vazifasi - talabalarda xalqimizning madaniy, ma'naviy merosiga, ilg'or an'analari, milliy qadriyatlari, axloqiy fazilatlariga hurmat, vatanparvarlik tuyg'ularini, ajdodlarimizning jahon madaniyatiga qo'shgan hissalaridan faxrlanish va ularning munosib davomchilari bo'lishni tushuntirish.					
II. Nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:					
1-mavzu. “Sharq allomalarining ilmiy me’rosi” fani predmeti, maqsad va vazifalari. Sharq allomalarining ilmiy merosining zamonaviy sivilizatsiya tarixidagi o’rni va roli Sharq allomalarining ilmiy me’rosi fanining predmeti, maqsadi va vazifalari. “Sharq allomalarining ilmiy me’rosi” fanini fan sifatida yoritish. Allomalarimizning insoniyat sivilizatsiyaga qo’shgan munosib hissasi, ularning Uyg’onish davri ilm-fan, madaniy yuksalishlar davrida qilgan kashfiyotlari, bashariyat uchun qanchalik muhim ekanligi keng yoritilgan. Sharqda islom va ilm muammosi hamda Markaziy Osiyoning yirik ilmiy markazlarda olib borilgan tadqiqotlar haqidagi yangi ma’lumotlar tahlili.Uning Uchinchi Renessans poydevorini yaratishdagi o’rni va ahamiyati yoritilgan. Islom madaniyati va uning o’ziga xos xususiyatlari, Sharq allomalarining islom madaniyatiga qo’shgan hissalar va uning ahamiyati, milliy ma’naviy hayotimizda allomalar merosining tutgan o’rni, barkamol avlodni tarbiyalashda buyuk allomalarimizning merosining roli, Sharqdagi buyuk allomalar merosining umuminsoniy xarakteri, insoniyat yaratgan sivilizatsiyaga qo’shgan hissasi haqida tushunchalar.					
2-mavzu. Lao Szi va Konfutsiyning hayoti va ilmiy merosi. “Daodetszin” (“Ezgulik yo’li yoki Kuch va harakat haqidagi kitob”). Qadimiy Xitovning 5 ta mumtoz asari — “Shudzin”, “Shidzin”, “Idzin”, “Yuedzin” va					

“Lidzi”. Konfutsiylik ta’limotining yuzaga kelishi hamda uning qadimgi Xitoy jamiyatida tutgan o’rni. Lao Szi va Konfutsiy ilmiy qarashlaridagi o’xshash va farqli jihatlar. Konfutsiylik falsafiy ta’limotining keying davrlarda o’rganilishi.

3-mavzu. Imom al-Buxoriy O’rta Osiyolik yirik muhaddis. Abu Iso Muhammad at-Termiziy hamda Al-Hakim at-Termiziylarning hayoti va ilmiy merosi

“Hadis ilmida Amir al-Mo‘miniyn” degan sharaflı nomga sazovor bo‘lgan muhaddis. “Al-Jome’ as-sahih”, “Al-Adab al-mufrad” asarlari. “Kashf uz-zunun” asari. Al-Hakim at-Termiziyning “Bad’u sha’ni Abu Abdulloh” va “Ar-Radd a’lol- muattila” asarlari. “Navodir al-usul fi ma’rifat axbor Rasul” (“Rasululloh xabarlarini bilishda nodir usullar”) nomli asar. Ibn al-Arabiyning “SHarh ul-masoil ar-ruhoniyya allatiy suila a’nhu al-Hakim at-Termiziy” (“Al-Hakim at-Termiziydan so‘ralgan ruhiy masalalarning sharhi”) nomli maxsus asari. Ibodat yoki marosim (arabcha at-tuqus) yoinki shariyat yo‘nalishi. Fiqh (islom qonunshunosligi) ilmi.

4-mavzu. Abu Ja’far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy- islom hadisshunosligi, fiqh hamda tarix ilmida mashhur olim

„Kitob ixtilof al-fuqaho“ („Faqihlarning ixtiloflari haqida kitob“) asarining mazmuni. „Musulmon tarixshunosligining otasi“. „Tarix ar-rusul val-muluk“ („Payg‘ambarlar, podshohlar va xalifalar tarixi“, „Tarixi Tabariy“ nomi bilan mashhur) asarida dunyo yaratilishidan to IX asrgacha bo‘lgan umuminsoniy tarix bo‘lib, u islom tarixshunosligidagi eng yirik asar. Qur‘oni karim tafsiriga bag‘ishlangan „Tafsir al-Qur‘on“.

5-mavzu. Abu Nasr Forobiy o’rta asrning buyuk qomusiy olimi. Abu Mansur al-Moturudiyning ilmiy faoliyati

“Muallim us-soniy”. Forobiy ijodida qadimgi Yunon mutafakkirlari asarlari va ularga yozilgan sharhlar. Falsafaning umumiy masalalariga oid asarlar (Masalan: “Substansiya haqida so‘z”, “Masalalar manbai”, “Qonunlar haqida kitob”). Inson bilishining tabiatiga oid asarlar Forobiy falsafiy qarashlarining asosi. Forobiyning “Aql ma’nolari haqida” risolasi. Abu Mansur al-Moturudiy- Moturidiya ta’limoti asoschisi. “Kitob at-tavhid” asari.

O‘zbekistonda 2000-yilda allomaning 1130 yilligi tavallud sanasining nishonlanishi.

6-mavzu. Abu Rayhon Beruniy hayoti va faoliyati. Qaffol ash-Shoshiy hayoti va merosi

Beruniyning bizgacha yetib kelgan asarlari: “Osoral-boqiya” (“Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”), “Hindiston”, “Geodeziya”, “Kitobi Saydana” (“Farmakagnoziya”), “Geografiya”, “Qonuni Ma’sudiy” (“Ma’sud qonunlari”), “Mineralogiya”, “Kitobi at-tafxim”, “Dorivor o‘simliklar haqida kitob” va boshqalar. Beruniyning astronomik qarashlari. Beruniyning tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Hanafiy usul al-fiqh faniga oid “Usul ash-Shoshiy”

asari.

7-mavzu. Abulqosim Firdavsiyning hayoti hamda ilmiy merosi

Firdavsiyning "hakim", "donishmand" nomlari bilan ulug'lanishi. Mahmud G'aznaviyning shoir hayoti va ilmiy faoliyatida tutgan o'rni. 50 podshohlikdan iborat, 4 ta sulola misolida Eron va Turon xalqlarining qariyb to'rt ming yillik tarixi yuksak mahorat bilan qalamga olingan 60 ming bayt (120000 misra)dan iborat muazzam "Shohnoma"ning keyingi davrlardagi Sharq adabiyotiga ta'siri.

8-mavzu. Mahmud az-Zamaxshariy arab va ajam allomasi.

Burxonuddin al-Marg'inoniylarning ilmiy merosi

"Al-Mufasssal fin-nahv" asari. "Ustoz ul-arab va-l-ajam" ("Arablar va g'ayri arablar ustoz"), "Faxru Xvarazm" ("Xorazm faxri"). Zamaxshariyning arab tili grammatikasiga oid ijodiy faoliyati. Jorulloh («Ollohning qo'shnisi»). «Ar-Rihla» («Sayohatnoma») asari. Burxonuddin al-Marg'inoniy hayoti va faoliyati. Al-Marg'inoniy "Hidoya" asari. O'zbekistonda 2000 yilda Al-Marg'inoniyning 910 yillik tavallud sanasining keng jamoatchilik tomonidan nishonlanishi.

9-10 mavzu. Tasavvufning vujudga kelishi. Tasavvufning islomiy idizlari. O'rta Osiyoda tasavvuf va tariqatlarni o'rganish muammolari.

Qodiriya, yassaviya, kubraviya va naqshbandiya (yoki "xojagon"). Xoja Ya'qub Yusuf Hamadoniy, Xoja Ahmad Yassaviy. "Safar dar vatan", "Xilvat dar anjuman", "hush dar dam", "nazar dar qadam", "dil ba yoru dast ba kor" shiorlari. O'rta Osiyo tasavvufini o'rganish manbalari. Shariat va tariqat masalalari. Abduxoliq G'ijduvoniylar shaxsiyati.

11-12 mavzu. Umar Xayyom- qomusiy olim. Abu Hamid Muhammad al-G'azzoliyning diniy-falsafiy qarashlari

Xayyom- "chodir tikuvchi". "Yevklid kitoblariga sharhlar", "Arifmetika muammolari", "Donishmandlik tarozisi", "Malikshohning falakiyot jadvali", "Borliq va burch haqidagi qaydlar" asarlari. Umar Xayyom matematik formulalari. "G'azzoliy" taxallusining kelib chiqishi. Uning fiqhga doir „Bosit“, „Vojiz“, „Vosit“, aqidaga doir „Qavoid al-Aqoid“ („Aqidalarning qoidalari“), „ar-Risolat al-qudsiya“ („Qudsiya risolasi“), mutasavviflar uchun „Ihya ulum ad-din“ („Diniy ilmlarni tiriltirish“), „Mukoshafat ul-qulub“ („Qalblar kashfiyoti“) asarlari mashhur. G'azzoliy asarlariga Forobiy, Ibn Sino, Abu Hayyon at-Tavhidiy qarashlarining ta'siri.

13-mavzu. Jaloliddin Rumiylar hayoti va adabiy-falsafiy merosi

Tasavvufdagi mavlaviya tariqatining asoschisi. Jaloliddin Balxiy nomi bilan atalish sababi. Rumiylar shaxsiyati kamolotida shoir va shayx Shams Tabriziylar o'rni. „Makotib“, „Ichindagi ichindadir“ („Fihi mo fihi“) hamda „Masnaviylar ma'naviylar“ kitoblari. Shoir devoni turli janrlardan iborat 25 ming

baytdan ziyod she'rlarni o'z ichiga olgan. Shoir Jamol Kamolning „Masnaviyi ma'naviy“ni o'zbek tiliga tarjimai. Sharq va G'arb donishmandlari falsafiy qarashlarining shoir asarlarida uyg'unlashuvi.

14-mavzu. Abduraxmon Abu Zayd Ibn Muhammad Ibn Xaldun asarlarida Sharq musulmon xalqlari tarixi bayoni

Arab tarixchisi va faylasufi. Asosiy asari: „Kitob ul-ibar“ („Ibratli misollar kitobi“, 1370). Ibn Xaldun Amir Temur tashqi siyosiy faoliyatiga salbiy nazar bilan qarashidan qat'i nazar, sohibqiron shaxsiga munosib baho bergan.

15-mavzu. XIX-XX asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga hissa qo'shgan mutafakkirlar

Ahmad Donishning tabiiy va ijtimoiy fanlar rivojiga qo'shgan hissasi. Ahmad Donish o'z davrining etuk mutafakkir jamiyatshunosi, faylasufi va tarixchisi, diplomati sifatida. „Navodirul vaqoe“ asari. Shamsiddin Shohin (1859-1894), Muhammad Siddiq Hayrat(1878-1902). «Tarix risolasi» kitobi. Mirzo Salimbekning „Tarixi Salimiy“ asari ilmiy ahamiyati. Eng buyuk jasorat – bu ma'naviy jasorat. Abdurauf Fitratning hayoti va ilmiy merosi. Yahyo G'ulomovich G'ulomov O'zbekiston FA akademigi (1966), O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi (1958), tarix fanlari doktori (1950), prof. (1955). „O'zbekistonda ijtimoiy fanlar“ jurnali tashkil etilishi. Amir Temurning shaxsi va faoliyatini ob'ektiv tahlil qilish

III. Seminar mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida talabalar Tarix fanida innovasiyalar: texnologiyalar, modellar va metodlar fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim va xulosalar chiqarish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat. Natijada, ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

Seminar mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. „Sharq allomalarining ilmiy me'rosi“ fani predmeti, maqsad va vazifalari. Sharq allomalarining ilmiy merosining zamonaviy sivilizatsiya tarixidagi o'rni va roli
2. Lao Szi va Konfutsiyning hayoti va ilmiy merosi.
3. Imom al-Buxoriy O'rta Osiyolik yirik muhaddis. Abu Iso Muhammad at-Termiziy hamda Al-Hakim at-Termiziylarning hayoti va ilmiy merosi
4. Abu Ja'far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy- islom hadishshunosligi, fiqh hamda tarix ilmida mashhur olim
5. Abu Nasr Forobiy o'rta asrning buyuk qomusiy olimi. Abu Mansur al-Moturudiyning ilmiy faoliyati.
6. Abu Rayhon Beruniy hayoti va faoliyati. Qaffol ash-Shoshiy hayoti va ilmiy merosi.

7. Abulqosim Firdavsiyning hayoti hamda ilmiy merosi
8. Mahmud az-Zamaxshariy arab va ajam allomasi. Burxonuddin al-Marg'inoniylarning ilmiy merosi
9. Tasavvuf tariqatlari vujudga kelishi. Tasavvufning islomiy ildizlari .
10. O'rta Osiyoda tasavvuf va tariqatlarni o'rganish muammolari
11. Umar Xayyom- qomusiy olim.
12. Abu Hamid Muhammad al-G'azzoliyning diniy-falsafiy qarashlari
13. Jaloliddin Rumi hayoti va adabiy-falsafiy merosi
14. Abduraxmon Abu Zayd Ibn Muhammad Ibn Xaldun asarlarida Sharq musulmon xalqlari tarixi bayoni
15. XIX-XX asr ijtimoiy-falsafiy fikr taraqqiyotiga hissa qo'shgan mutafakkirlar.

Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limni baholash – bu talabalarning jamoaviy tartibda va yakka tartibda berilgan amaliy loyihalarni bajarishlari orqali amalga oshiriladi. Bunda har bir talabaga bitta jamoaviy loyiha va ikkita yakka tartibda bajariladigan loyiha beriladi. Talaba berilgan loyihaning maqsad va vazifalarini, mohiyatini tushungan holda qo'yilgan masalani o'rganib, izlanishlar olib boradi. Olingan natijalarni tahlil qilib, xulosalari bilan taqdimotlar tayyorlab himoya qiladi. Ishchi fan dasturida loyihalarning soni, mavzusi, mazmuni bajarish usullari va topshirish muddatlari to'liq ochib beriladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Mustaqillik davrida O'zbekiston Respublikasida yubileylari nishonlangan O'rta Osiyolik allomalar haqida ma'lumot tayyorlash.
2. Imom al-Buxoriy, Ahmad Fag'oniy va Burhoniddin Marg'inoniyning yubileylari tadbiriga oid fotoalbom tayyorlash.
3. "Musulmon Uyg'onish davrida O'rta Osiyoda ilm-fan" mavzusida referat yozish.
4. O'zRFA SHarqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan allomalarimizning asarlari ro'yhatini tuzish.
5. "Islom va ilm" mavzusida ilmiy maqola yozish.
6. "Muso Xorazmiy va Abu Abdulloh Xorazmiylarning dunyo sivilizatsiyasidagi o'rni haqida" esse yozish.
7. O'rta Osiyolik allomalar ijodida ilmlar tasnifi mavzusida referat tayyorlash.
8. "A.Mets Musulmon Uyg'onish davri muammosi bilan shug'ullangan sharqshunos olim" mavzusida ilmiy maqola yozish.
9. "F.Rouzentel Qur'onda "ilm" tushunchasini tahlil qilgan olim" mavzusida ilmiy maqola yozish.
10. Qur'oni Karimning o'zbekcha tarjimalari xususida ma'lumot tayyorlash.
11. At-Termiziyning "Ash-SHamoil an-nabaviya" asari xususida ma'lumotnoma yozish.
12. "Ahmad al – Farg'oniy O'rta Osiyolik mashhur mutafakkir" mavzusida

	ma'ruza tayyorlash. 13. "Abu Nasr Farobiy ulug' qomusiy alloma mavzusida " referat yozish. 14. "Qaffol ash-Shoshiy - Xazrati Imom" mavzusida ilmiy-ommabop maqola tayyorlash. 15. "Abu Mansur al Moturidiy buyuk kalom imomi" mavzusida kichik tadqiqot yaratish. 16. Firdavsiyning "Shohnoma" asari haqida taqdimot tayyorlash. 17. "Abu Ali ibn Sino buyuk qomusiy alloma" mavzusida ma'ruza tayyorlash. 18. Abu Rayxon Beruniy asarlari bibliografiyasini tuzish. 19. "Abu Rayxon Beruniy Xorazm Ma'mun akademiyasining yirik olimi" mavzusida referat yozish. 20. "Abu Mu'in Nasafiy islom islohotchisi" mavzusida referat yozish. 21. "Mahmud Zamaxshariy jahon fani va madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan allomasi " mavzusida referat yozish. 22. "Burhonuddin Marg'inoniy va uning "al – Hidoya" asari" mavzusida ilmiy maqola yozish. 23. "Tarixi Tabariy" asari asosida taqdimot tayyorlash. 24. Umar Xayyom falsafiy qarashlari haqida referat tayyorlash. 25. "O'rta Osiyoda tasavvufning tushkunlikka uchrashi" haqida ilmiy ma'lumot tayyorlash. 26. Farididdin Attorning "Tazkirat ul avliyo" asari xaqida ma'lumot tayyorlash. 27. Tasavvuf tarixini yoritgan g'arb olimlari haqida bibliografik ma'lumot to'plash. 28. Konfutsiylik ta'limotining Xitoy boshqaruv tizimida tutgan o'rni. 29. Jaloliddin Rumiyning "Masnaviy" asari xaqida ma'lumot tayyorlash. 30. O'zbek tasavvufshunos olimlari haqida ma'lumot to'plash
3.	VII. Ta'lim natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o'zlashtirish natijasida talaba: • Sharq allomalarining hayoti, faoliyati hamda qoldirgan ilmiy me'rosi, ularning jamiyatning turli jabhalarida tutgan o'rni haqida <i>bilimga ega bo'lishi;</i> • Sharqning yetakchi mutafakkirlari tomonidan yozib qoldirilgan nodir asarlarni topish, ularda berilgan ma'lumotlarni o'zlashtira olish <i>ko'nikmasiga ega bo'lishi;</i> Sharq allomalari asarlarida qo'llangan atamalar, tushunchalarni tahlil qila olish hamda turli manbalardagi ma'lumotlarni solishtirgan holda xulosa chiqara olish <i>malakasiga ega bo'lishi kerak.</i>
4.	VIII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar;

	• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish; • individual loyihalar; • jamoa bo'lib ishlash va hioya qilish uchun loyihalar
5.	IX. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar va tushunchalar haqida mustaqil mushohada yuritish, joriy va oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha og'zaki savol javob, yozma ish yoki test topshirishi zarur.
6.	X. Asosiy adabiyotlar: 1. Буюк истеъдод соҳиблари. Ўз. Рес. ФА Шарқшунослик институти. . - Т. "Адолат", 2002. 2. Ғафуров Ғ. Шарқ жавоҳирлари. - Т.: "Маънавият", 2003 3. Иброҳимов А. Ётиқодга баҳшида умр. –Т.: Янги аср авлоди., 2004. XI. Qo'shimcha adabiyotlar 1. Абдуқаҳҳор Иброҳимов. Маъмун академияси. – Т., 2005. 2. Беруний туғилган кунининг 1000 - йилиги. – Т.: Фан, 1973 3. Ирисов А. Абу Райҳон Берунийнинг "Ҳиндистон" асари. –Т.: Фан, 196 4. Комилов Н. Тафаккур қарвонлари. –Т., 1999 5. Абдулҳаким Шаръий Жўзжоний. Тасаввуф ва инсон. –Т.: Адолат, 2001 6. Бул Муъин ан-Насафий. Тавҳид қондаларига муқаддима. Т.: Мовароуннаҳр, 2006. 7. Ҳ.Маҳмуд Аъсад Жушон. Тасаввуф ва нафс тарбияси. ИИ. Хасан таржимаси. -Т., 1998 8. Ernst Карл. Суфизм. -М., 2002 9. Фаридиддун Аттор. Тазкират ул-авлиё. М.Кенжабек таржимаси. -Т., 1997. 10. Жалолиддин Румий. Ичингдаги ичингдадир. Улуғбек Абдувахоб таржимаси. - Т.: Ёзувчи, 1997 11. Холлук Нурбокий. Қуръони Қаримнинг илмий мужизалари. Миразиз Аъзам таржимаси. Т.: Адолат, 1999. 12. "Имом ал-Бухорий ва унинг дунё маданиятида тутган ўрни"мавзусидаги халқаро илмий конференция материаллари. - Самарқанд, 1998. Axborot manbalari www.pedagog.uz (Respublika pedagogika talim muassasalari portali) www.cspi.uz (Chirchiq davlat pedagogika universiteti web-sayti) www.edu.uz (O'zbekiston Respublikasi ta'lim portali) www.unilibrary.uz (Yagona elektron kutubxona axborot tizimi) www.natlib.uz (A.Navoiy nomidagi O'z.MK)

	www.ziyonet.uz - Ziyonet axborot-ta'lim resurslari portali
7.	Chirchiq davlat pedagogika universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2024 yil “<u>29</u>” <u>avgust</u> dagi qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun ma'sul: O.M.Normatov – CHDPU, “Tarix” kafedrası mudiri, dotsent tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD). A.M.Toshtemirov – CHDPU, “Tarix” kafedrası o'qituvchisi
9.	Taqrizchilar: M. Asqarov – TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va tarix fakulteti dekani, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, (PhD). O.A. Maxmudov - ChDPU, “Tarix” kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi.